

XO'JALIK YURUTUVCHI JAMIYATLARNI BOSHQARISHDA IJRO ORGANINING ROLI HAMDA UNING FAOLIYATINING NAZARIY- HUQUQIY TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11507551>

Файзиева Мадина Бахтиеровна

Тошкент туманлараро иктисодий суди судья ердамчиси

Annotatsiya

Jamiyatlarning ijro etuvchi organi ularni boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi shakllangan iqtisodiy makonda ular kompaniyalarning o'sishi hamda kengayib borishi uchun mas'ul shaxslar sifatida ko'rilmogda. Ushbu maqolada jamiyatlarining, shu jumladan, mas'ulyati cheklangan jamiyatlar hamda aksiyadorlik jamiyatlarida ijro organlari va ularni saylash hamda ular tomonidan o'z vakolatlarini amalga oshirish tartibi, huquq va majburiyatlarining nazariy-huquqiy jihatlari hamda sohaga oid sud amaliyoti va vujudga kelayotgan muammolar tahlil qilinadi hamda ular yuzasidan fikr va mulohazalar berib o'tiladi.

Kalit so'zlar

ijroiya organi, direktor, jamiyatning ustavi, mas'ulyati cheklangan jamiyat, aksiyadorlik jamiyati.

Keskin suratlarda rivojlanib borayotda bozor iqtisodiyotida uni asosini tashkil etuvchi xo'jalik yurutuvchi subyektlarni boshqarishda "ijro etuvchi" funksiyani bajaradigan organ yakkaboshlik asosida boshqaruvchi direktor yoki kollegial tarzda boshqaruvchi direktorlar kengashi yoxud jamiyat boshqaruvidan iborat bo'ladi¹⁵³. Ushbu ijro organlarini saylash hamda faoliyatini huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi "Mas'ulyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'ulyatli jamiyatlar to'g'risida"gi va "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari asosida, shuningdek, jamiyatni ustavi, direktor bilan tuziladigan shartnomalarida o'z aksini topadi. Jamiyatning ijro organi va jamiyat ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlar bir qator nazariyalarga asoslanadi va bunga "Agentlik nazariyasi" va "Boshqaruv nazariyasi" kabilar eng mashhurlari hisoblanadi.

Agentlik nazariyasi aksiyadorlar va ijro etuvchi organlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi. Bu ikki guruh o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi bo'lishi

¹⁵³ <https://www.investopedia.com/terms/b/boardofdirectors.asp>

mumkinligini ta'kidlaydi, chunki rahbarlar aksiyadorlar manfaatlariga mutlaqo mos kelmaydigan shaxsiy maqsadlarga intilishlari mumkin. Bu nazariya bunday qarama-qarshiliklarni yumshatish, boshqaruvchilarning kompaniya va uning aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab harakat qilishini ta'minlash uchun mustahkam boshqaruv mexanizmlari zarurligini ta'kidlaydi¹⁵⁴. Agentlik nazariyasidan farqli o'laroq, boshqaruv nazariyasi rahbarlar tabiatan kompaniya resurslarining boshqaruvchisi sifatida harakat qilishini taklif qiladi, bu esa kasbiy etika va tashkilot muvaffaqiyatiga sodiqlik kabi ichki omillarga asoslanadi. Ushbu nazariya ishonch va vakolatlarni ta'kidlab, agar rahbarlar ishonchli bo'lsa, ular kompaniyani rivojida ahamiyati oshadi va kompaniyaning eng yaxshi manfaatlarini ko'zlab harakat qilishlari mumkinligini ta'kidlaydi¹⁵⁵.

Jamiyat ijro organining faoliyati bo'yicha milliy qonunchilik normalarini ko'rib o'tadigan bo'lsak, mas'ulyati cheklangan jamiyatlarda jamiyatning yakkaboshlik asosida boshqaruvchi ijro organi hisoblanmish direktor yoki uning kollegial ijro etuvchi organi (boshqaruvi, direksiyasi va boshqalari) jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadi. Ularni saylanish muddati, shuningdek, kollegial ijro organida a'zolarining soni tegishli mas'ulyati cheklangan jamiyatlarning ustavi bilan belgilanadi. Shuningdek, direktor yoki kollegial ijro organi a'zolari jamiyat ishtirokchilaridan va ishtirokchi bo'lmaganlardan ham iborat bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, direktorga qonun bilan bir qator huquqlar, shu jumladan, jamiyat nomidan ishonchnomasiz faoliyat olib borib, uning manfaatlarini ko'zlab harakat qiladi va bitimlar tuzadi; jamiyat nomidan vakillik qilish huquqi uchun ishonchnomalar beradi; jamiyatning xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi, rag'batlantirish va intizomiy javobgarlik choralarini qo'llaydi; ustav yoki qonun bilan jamiyatni umumiy yig'ilishi vakolatlariga kiritilmagan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi. Jamiyatning kollegial ijro etuvchi organining vakolatlari esa jamiyatning ustavi bilan belgilab qo'yiladi va ular o'z vakolatlarini ushbu ustavda belgilangan doirada amalga oshiradi¹⁵⁶. Direktor(yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi vazifasini amalga oshiruvchi shaxs) yoki jamiyatning kollegial ijro organining faoliyati va ualr tomonidan qaror qabul qilish tartibi jamiyatning hujjatlari bilan belgilanadi, shu bilan birga, ushbu masalalar direktor bilan tuziladigan shartnomada ko'rsatib o'tilishi mumkin. Direktor yakkaboshlik asosida faoliyat ko'rsatishi tufayli u qaror qabul qilishda mustaqil hisoblanadi. Kollegial ijro

¹⁵⁴ <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/esg/agency-theory/>

¹⁵⁵ <https://medium.com/@aadikr9717/what-is-stewardship-theory-in-management-648a8ed4057f>

¹⁵⁶ 2001-yil 6-dekabdagi "Mas'ulyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'ulyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 39-40-moddolari. URL: <https://lex.uz/docs/-22525#-23275>

organlarida esa uning raisi jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadi. Shu bilan birga, jamiyatning ishtirokchilari umumiy yig'ilish qarori bilan jamiyat ijroiya organining vakolatlarini boshqa tijorat tashkilotiga (ishonchli boshqaruvchiga) berishlari mumkin. Jamiyatni kollegial ijro organi tomonidan boshqarishda etiborga molik jihat shundaki, kollegial ijro etuvchi organning a'zosi ovoz berish huquqini o'zga shaxslarga, shu jumladan jamiyatning kollegial ijro etuvchi organining boshqa a'zolariga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida ham jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish vakolati jamiyatning ustavida belgilanadigan direktor yoki jamiyat boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Agar jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik boshqaruv tomonidan amalga oshiriladigan bo'lsa, jamiyat ustavida boshqaruv rahbarining (boshqaruv raisining) vakolati ham belgilangan bo'lishi lozim.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyat ijroiya organining vakolatlari shartnoma bo'yicha tijorat tashkilotiga (ishonchli boshqaruvchiga) berilishi mumkin. Umumiy qoida tariqasida Jamiyatning ijroiya organlarini tuzish hamda ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu vakolat jamiyatning ustaviga ko'ra kuzatuv kengashiga ham berilgan bo'lishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyatlarida jamiyat ijroiya organining vakolatiga jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar (umumiy yig'ilishining yoki jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno) kiradi. Jamiyatning ijroiya organi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi. Jamiyatning direktori (boshqaruv raisi) jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi, jamiyat nomidan bitimlar tuzadi, jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlaydi, shtatlarni tasdiqlaydi, jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi. Jamiyatning ijroiya organi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi¹⁵⁷.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tayinlanadigan jamiyat ijroiya organi tarkibiga kirgan shaxsning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan hollarda, jamiyat kuzatuv kengashining qarori bilan belgilangan shaxs uning vazifalarini aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda vaqtincha bajarib turishiga yo'l qo'yiladi. Jamiyat direktorining, jamiyat boshqaruvi

¹⁵⁷ 2014-yil 6-maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 79-moddasi. URL: <https://lex.uz/docs/-2382409#-2383155>

a'zolarining, ishonchli boshqaruvchining huquq va majburiyatlari qonun va boshqa qonunchilik hujjatlarida, jamiyat ustavida hamda ularning har biri jamiyat bilan uch yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinib boriladi. Jamiyatning direktoriga, boshqaruv a'zolariga to'lanadigan haq miqdori, shuningdek ishonchli boshqaruvchining xizmatlariga haq to'lash shartlari jamiyat faoliyatining samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi va shartnomada belgilangan bo'lishi kerak. Jamiyatning direktori (boshqaruv raisi) vazifalarini boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozim bilan birgalikda egallab turishga faqat jamiyat kuzatuv kengashining roziligi bilan yo'l qo'yiladi¹⁵⁸.

Amaliyotda ijro organini huquq va majburiyatlariga oid bir qator muamolar vujudga kelmoqda. Misol sifatida aytishimiz mumkinki, direktor tomonidan jamiyat nomidan yirik bitimlar tuzishda tegishli huquqiy protseduralarga rioya qilomaslik hollari uchramoqda. Bilamizki, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlari to'g'risida"gi qonuning 83-84-moddasida qanday bitimlar yirik bitim hisoblanishi va ularni tuzish tartibi bayon etilgan. Ushbu normalarga asoslanib, jamiyat tomonidan mol-mulkni olish uni boshqa shaxslarga berish, begonalashtirish va mol-mulkni boshqa shaxslarga berish ehtimoli bilan bog'liq bitimlar(qarz, kredit, garov, kafillik kabi), bunday bitimlarni tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan paytda jamiyatni sof aktivlarining o'n besh foizidan ortiq bo'lsa, yirik bitim deb hisoblanadi. Mas'ulyati cheklangan jamiyatlarda esa, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi qonuning 44-moddasidan anglashilishicha, yirik bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinadigan kundan oldingi oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari asosida aniqlangan jamiyat mol-mulki qiymatining yigirma besh foizidan ortiq qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni jamiyatning olishi, tasarrufidan chiqarishi yoki jamiyat bevosita yoxud bilvosita mol-mulkni tasarrufidan chiqarishi ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan bitim yoki o'zaro bog'liq bir necha bitim yirik bitim deb hisoblanadi¹⁵⁹.

Qonunchilikka muvofiq, yirik bitim hisoblanmish bitimlar tuzilayotganda direktor jamiyatni umumiy yig'ilishining yoki kuzatuv kengashining roziligini olishi talab etiladi. Ammo amaliyotda direktor tomonidan ushbu protseduraga amal qilamagan holda yirik bitimlar tuzish hollari uchramoqda va bu esa o'z

¹⁵⁸ 2014-yil 6-maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi

O'zbekiston Respublikasi Qonunining 79-moddasi. URL: <https://lex.uz/docs/-2382409#-2383155>

¹⁵⁹ 2001-yil 6-dekabdagi "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 44-moddasi. URL: <https://lex.uz/docs/-22525#-23275>

navbatida uchinchi shaxslarning manfaatlariga zarar yetishiga va ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishda qiyinchiliklarga sabab bo'lmoqda. Misol sifatida banklar tomonidan yirik bitim tuzish orqali jamiyat mulkini garov shartnomalari, kafillik shartnomalari tuzilish holatlarida ushbu kredit yoki qarz beruvchi banklarning manfaatlariga zarar yetmoqda. Ushbu holat ko'plab sud jarayonlarida kuzatilayotganligi bois direktorning noqoquniy xatti-harakatlari natijasida uchinchi shaxslarga zarar yetkazilganda direktordan undirishni qonunchilikda belgilash masalasining dolzarbligi oshib bormoqda va ushbu muammoni bartaraf etishga oid normalar qonunchilikka kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatalardagi ijro organlarining faoliyati bir qator keltirib o'tilgan nazariyalarga asoslanadi va ushbu nazariyalar ko'plab davlatlar qonunchiligida huquqiy model sifatida olinib, ular asosida tegishincha normalar mamlakatlar qonunchiligiga kiritilgan. Shuningdek, O'zbekiston qonunchiligi ham bundan mustasno emas. Milliy qonunchiligimizda jamiyatlarda ijroiya organini faoliyatiga oid huquqiy asoslar tahlil qilinadi va bir qator muammolar aytib o'tildi.

REFERENCES.

1. H.R. Rahmonqulov, S.S.Gulyamov. Korporativ huquq. Huquqshunoslik oliy yurtlari uchun darslik. -T.: TDYI nashriyoti, 2008. 448 bet.
2. 2001-yil 6-dekabdagi "Mas'ulyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'ulyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
3. 2014-yil 6-maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
4. <https://www.investopedia.com>
5. <https://medium.com>
6. www.lex.uz
7. <https://corporatefinanceinstitute.com>
8. <https://public.sud.uz/report/ECONOMIC>